

G`AFUR G`ULOM SHE'RIYATIDA XALQLAR DO`STLIGI

Mavlonbek Abdumuminov Sirojiddin o`g`li

*Toshkent davlat yuridik universiteti,
Ommaviy huquq fakulteti 2-bosqich talabasi
mavlonbekabdumominov5@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqola G`afur G`ulomning she'riyatida xalqlar dostligi mavzusining o`ziga xos ifodalari va uning zamonaviy ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini tahlil etadi. Shoirning she'rlarida tinchlik, do`stlik va xalqlar o`rtasidagi madaniy hamkorlik g`oyalari qanday aks etganligi, shuningdek, uning ijodidagi xalqaro aloqalar va xalqlararo hurmatni ta'minlashga oid fikrlari yoritiladi. Maqolada shoirning asarlaridagi xalqlar do`stligi g`oyalarining bugungi kundagi ahamiyati, uning xalqlar o`rtasidagi o`zaro hurmatni saqlashdagi roli haqida fikr yuritiladi.

Kalit so`zlar. She'riyat, xalqlar do`stligi, tinchlik, ijtimoiy va siyosiy aspektlar, globalizatsiya, madaniyat, xalqaro aloqalar.

Kirish. G`afur G`ulomning she'riyatida xalqlar do`stligi mavzusi adabiyotning eng oliv g`oyalari bilan bog`liqdir. U o`z asarlarini nafaqat zamonining, balki insoniyatning umumiy qadriyatlari va g`oyalari bilan bog`laydi. Shoirning asarlarida yashirin bo`lgan tinchlik, do`stlik va o`zaro hurmatning ijtimoiy, siyosiy va madaniy aspektlari bugungi kunda ham muhim ahamiyatga ega.

Shoirning birgina “Qardosh tojik xalqiga o`zbek xalqidan salom” she`rida tarixiy xotiralar asosida bu ikki xalqning do`stona turmushi, ma`naviy-ma'rifiy birligi ifodalangan.

Yaqin quda-qudag`ay, qadim-qadimdan buyon,

Birining o`g`li tojik, kelini o`zbek qizi.

Otasi Farg`onalik, modashar az Badaxshon,

Ona tilisi tojik, ammo o`zbekdir o`zi.

Haqiqatan ham shoir tasvirlagani kabi o`zbek va tojiklar aralash yashovchi mintaqalarda o`zbekdan kelini bo`lмаган yoki tojikdan kuyovi bo`lмаган, qo`yingki, qon-qarindosh bo`lib ketmagan o`zbek va tojik oilalarini uchratish qiyin. Har bir o`zbekning tojik, har bir tojikning o`zbek qarindoshi borligi ikki xalqning bir-biriga chuqur ehtiromi, qalin do`stligi belgisidir.

Ta'kidlash joizki, Shoir Sadriddin Ayniy va Mirzo Tursunzoda kabi tojik allomalari bilan chin do`st bo`lib, ushbu do`stlik rishtalarining yanada mustahkamlanishiga o`zining arzirli hissasini qo`sha oldi hamda yangi davr o`zbek va tojik xalqlari do`stligining ramziga aylandi.

Bundan tashqari, shoir yoshligidan ozarbayjon va tatar tillarini akasi Rixsi qori yordamida o`rganishga harakat qilgan. Tushunmagan so`zlarini va boshqa til qoidalarini ular otasidan o`rganishgan. Adib imkon topildi deguncha Qozonga borish, tatar madaniyati va adabiyoti bilan yaqindan tanishish taraddudida bo`lgan. Nihoyat, adib orzusi ushalib,

1928-yilda u Ziyo Said bilan Qozon shahriga borishadi. Tatar ijodkorlari o`zbek adiblarini hurmat va ehtirom bilan kutib oladilar. Tatar adabiyotshunos olimi Hodi Taqtosh o`z navbatida Qozon adabiy muhiti bilan o`zbek ijodkorlarini tanishtiradi. Shuningdek, shoir xalqlar do`stligi tuyg`ularini e`tirof etib, “Qozoq elining ulug` to`yi”, “Bir-biriga ustoz, bir-biriga shogird”, “G`oliblar sharafiga” kabi she`rlarida xalqlar do`stligi va ularning birdamligi tarannum etilgan. “Bizning uyimizga qo`nib o`ting, do`stlarim”, “Ozarbayjonlik paxtakor yurtdoshlarga” kabi she`rlari shunday xususiyatlari bilan diqqatga sazovordir.

G`afur G`ulom va uning ijodkor do`stlari o`rtasidagi yozishmalardan u faqat tatar tilini emas balki tojik, qozoq, turk, qirg`iz, rus, arab tillarini ham bilganligi ma'lumdir. Shundan ham anglashimiz mumkinki, shoir xalqlarning do`st-birodar bo`lishligi hayotning lazzati, ma`no-mazmuni ekanligi nafaqat uning ijodidan, balki yashab o`tgan umr yo`llaridan ham ma'lumdir.

G`ulom she`rlarida insonga xos bo`lgan asosiy qadriyatlar, ya`ni mehr-shafqat, o`zaro yordam va hamdardlik doimiy ravishda aks etadi. Uning she`rlari xalqlar o`rtasidagi tafovutlar va ziddiyatlarga qarshi turgan, bu ziddiyatlarni birlashtiruvchi kuch sifatida ko`rib chiqiladi. Shoirning fikricha, xalqlar orasida haqiqiy do`stlik faqat ularning madaniyatları o`rtasidagi uyg`unlikda yuzaga kelishi mumkin. U shoir sifatida xalqaro miqyosda adabiyotning bu kabi rollarini o`z asarlarida kengaytirgan.

Bugungi kunda G`ulomning she`rlari, ayniqsa, xalqlar o`rtasidagi do`stlik va hamkorlikka oid g`oyalari, yana bir bor dolzarbligini ko`rsatmoqda. Globalizatsiya jarayonlari, turli millatlar o`rtasida madaniy, siyosiy va ijtimoiy aloqalar o`rnatilganiga qaramay, hali ham ko`plab xabarlar va g`oyalarda milliy va diniy farqlarni yo`q qilish muammosi mavjud. G`afur G`ulomning she`rlari hozirgi kunda ham xalqlar o`rtasidagi o`zaro hurmat, tinchlik va hamjihatlikni saqlashda adabiyot va san`atning rolini yuksaltirishga xizmat qiladi. Uning ijodi, dunyo xalqlarining bir-birini tushunishi va tinch yashashiga qo`shgan hissasi bilan ajralib turadi.

So`zimiz so`ngida shuni aytish joizki, G`afur G`ulomning she`riyatida xalqlar o`rtasidagi do`stlik goyasi doimo yuksak o`rin tutgan. Uning asarlarida xalqlar o`rtasidagi madaniy uygunlik, o`zaro hurmat va tinchlikka asoslangan g`oyalalar ko`plab she`r va hikoyalarda aks etgan. Shoir nafaqat o`zbek xalqining, balki boshqa xalqlarning ham madaniy qadriyatlarini hurmat qilishga chaqirgan. G`afur G`ulom o`z she`rlari va ijodi orqali xalqlar o`rtasidagi do`stlikni va hamkorlikni rivojlantirishga katta hissa qo`shgan. Uning asarlari bugungi kunda ham xalqlar o`rtasidagi o`zaro hurmat, tinchlik va hamjihatlikni saqlashda adabiyotning roli va ahamiyatini ko`rsatishda davom etmoqda. Shu boisdan, G`afur G`ulomning she`rlari xalqlar o`rtasida yaxshilik va do`stlikni mustahkamlashda katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1) O`zbekiston Milliy Ensiklopediyasi: G`afur G`ulom – 21 б
- 2) “Tanlangan asarlar”. – Toshkent 2012

3) Mirzayev, D. (2010). O'zbek she'riyati: Tarixiy tahlil. Toshkent: “O'zbekiston”.

4) G`ulomov, X. (2015). She'rdagi tasvirlar va badiiy ifodalar. Toshkent: "Fan".

5) Ғулом = Гафур Гулям: Таваллудининг 100 йиллиги муносабати билан: Методик-библиографик қўлланма /Тузувчилар: М.Матмурадова, М.Зоитжонова, Г.Берман ва бошқ.; Бош муҳаррир: И.Маминова.-Т., 2003.-40 б.